

FUQAROLIK FAZILATLARI

Hurmat



Mening omadim kelmadi, sinfimiz unchalik ahil emas. O‘zaro munosabatlarimiz havas qilgulik darajada bo‘lmagani uchun tez-tez tushunmovchiliklar, bahs-munozaralar kelib chiqadi. Men do‘stlashgan ba’zi bolalar juda sho‘x va quvnoq. Biz hovlida o‘ynashni yaxshi ko‘ramiz va doim qiziqarli o‘yinlar o‘ylab topamiz. Ammo baholarimiz u qadar yuqori emas. Sinfimizdagi boshqa bolalar esa, aksincha, tinmay o‘qib, faqat a‘lo baholar olishga harakat qilishadi. Afsuski, ular bizni pisand qilishmaydi, doskada adashib ketsak, ustimizdan kulishadi. Jismoniy tarbiya darsida esa, aksincha, ularning qo‘lidan ko‘p narsa kelmaydi. Shunda biz ham bo‘sh kelmay, ularning ustidan kulib, o‘zimizcha o‘ch olgandek bo‘lamiz.

Narigi sinfda esa vaziyat butunlay boshqacha. U yerda mening qo‘shnim o‘qiydi. Uning aytishicha, ular o‘zaro ahil va inoq ekanlar, bir-birlariga darslarda ko‘maklashib, bo‘sh vaqtlarini ham maroqli o‘tkazisharkan. Ular nima sababdan bunday ahil ekanligini bilmayman-u, lekin ularga havasim keladi.



1. Hikoya qilayotgan o‘quvchi va sinfdagi o‘quvchilarda qaysi fuqarolik fazilatlari yetishmayapti?
2. Qaysi fazilatlari yo‘qligi sababli ular nimadan mahrum bo‘lishmoqda?
3. Bu vaziyatni qanday hal qilish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.



Biz yoshi katta va hurmatga loyiq insonlarni ko‘rib qolsak, ularga hurmat ko‘rsatamiz. Hurmat tuyg‘usi ko‘pincha o‘z-o‘zidan uyg‘onadi. Biroq atrofimizdagi har bir inson hurmatga loyiq ekanini anglash har doim ham oson kechmaydi. Aslida, har bir shaxs: katta-yu kichik, omadi chopgan yoki chopmaganlar, yaxshilik qilgan yoki hali qilishga ulgurmaganlar – barcha-barchasi e‘zozga loyiqdir. Xullas, har bir insonga hurmat ko‘rsatish chinakam insoniylik belgisidir. Agar mana shu oltin qoidaga amal qilsak, atrofidagilar bilan do‘stona munosabat o‘rnata olamiz. Hamjihatlik bor joyda esa, shubhasiz, buyuk va xayrli ishlar amalga oshadi.



Hurmat ko‘rsatish deganda biror inson hali maqtovgga loyiq ish qilmagan bo‘lsa ham, u boshqalardan yaxshi tomoni bilan ajralib turmasa ham, hatto uning qaysidir jihati bizga yoqmasa, bizga o‘xshamasa yoki fikri bizga ma‘qul kelmasa ham uni hurmatga loyiq ko‘rish, uning qadr-qimmatini tan olish tushuniladi.



O‘zaro hurmat tufayli mutlaqo har xil, notanish odamlar ham bemalol muloqot qilib, samarali hamkorlik qilishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘zaro hurmat bor joyda odamlarning bir-biriga o‘xshamasligi yoki imkoniyatlari cheklanganligi nuqson emas, balki katta afzallik hisoblanadi. Chunki turli qobiliyatga ega bo‘lgan insonlar birlashsa, o‘zlari alohida qila olmagan juda ko‘p yaxshi ishlarni amalga oshira oladilar.

Hurmat hattoki bir-biriga butunlay o‘xshash bo‘lmagan insonlarni ham o‘zaro bog‘lay oladigan o‘ziga xos ko‘prikdir.



Mavzuni so‘zlab berishga tayyorlaning.

